

**TARIX DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI**

Yo'ldoshev Salimjon Valiyevich, Phd,  
Yusupov Shoxbek Baxtiyorjon o'g'li, magistrant,  
Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh.

**Annotatsiya:**

Mazkur maqola Tarix darslarida muammoli o'qitish texnologiyalari va uning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lif jarayonlariga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarning tahlili yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, muammoli o'qitish, muammoli vaziyat, evristika, tafakkur, xayol, mustaqil fikrlash, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, munozara, intellektual mehnat, hamkorlik pedagogikasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi..

**KIRISH**

Jahoning rivojlangan mamlakatlari tarixiy tajribasi Shundan dalolat beradiki, davlat mustaqillik va taraqqiyot yo'liga qadam qo'yar ekan, asosiy e'tiborni ta'limga, avvalom bor yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashga yo'naltirish zarur. Hozirgi kunda ta'lif muassasalarining asosiy vazifalari o'quvchi-o'quvchilarga zarur bilimlarni etkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iboratdir. Ilm-fan va texnika jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan ayni paytda bu vazifalarni an'anaviy ta'lif texnologiyasi yordamida hal etib bo'lmay qoldi, shu boisdan ta'lif-tarbiya jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keldi.

**ASOSIY QISM**

O'zbekistonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarqqiyoti, istiqboli ta'lif-tarbiya sifatiga va jarayoniga bog'liqligidan kelib chiqib, maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lif muassasalaridagi ta'lif-tarbiya ishlarining barchasi yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar jarayonidagi modullar ta'lif mazmuni, vositalari va usullarining har biriga tegishli tarkibiy elementlarni eng ma'qul deb topilgan yo'llar, usullar, vositalardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Aytish joizki, ta'lif-tarbiya tarixida yig'ilgan boy didaktik tajribaning ijobiy jihatlarini ta'linda topdi. SHu jihatlarni hisobga olgan holda aytish mumkinki tadqiq etayotgan mavzuni o'rganishda ham modulli yondoshuvdan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun talabi o'quvchilarni interaktiv usullar asosida o'qitish yuzasidan bir qator olimlar va uslubchilar o'z asarlarida yoritib o'tganlar. Jumladan, Jo'raev R.H., Zunnunov A., Jumaniyozova M.T. Ochilov M., Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Imomnazarov M., Eshmuxamedova M., Tolipov U. Usmonboeva M., Golish L.V., Sayidahmedov N., Tolipov.O', Usmonboeva.M., Safin D.V., Musina R.G., Uralova M., Davlyatova G., Egamberdieva T., Yo'ldoshev S.lar xorij tajribalari va o'qitish usullari to'grisida tegishli tavsiyalar berishgan[1].

Xorijiy davlatlar bilan muntazam ravishda aloqalarimiz mustahkamlanib bormoqda, xalqaro anjumanlar o‘tkazilib kelinmoqda. Tarix fanida ham yangiliklar kiritilishi va u yangiliklarni hayotda o‘z aksini topishi tushunarli. Bu yangiliklarning ba’zilari sof nazariy va to‘liq amaliy ko‘rinishga ega bo‘lishi ham mumkin. Lekin, har qanday nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan innovatsiya ham amaliyot tomon rivojlanadi va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning rivojlanib borishi bir qator amaliy innovatsiyalar paydo bo‘lishiga yo‘l ochishi mumkin. O‘zbekiston tarixi fanida innovatsiyalar yuqorida aytganimizdek, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ijtimoiy-ma’naviy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyat kasb etishi ham o‘ziga xosdir.

Globallashuv jarayoni va axborot almashinuvning o‘ta tezlashuvi sharoitida tarix fanida ham innovatsiya tushunchasi va undagi innovatsion jarayon o‘ta muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda avvalo inson ongi uchun kurash ketayotkan ekan, kurashayotgan tomonlarning barchasi eng so‘nggi yangiliklarga, ya’ni eng so‘nggi innovatsiyalarga tayanayotganligi, ulardan imkon qadar maksimal foydalanishga intilayotganligini ko‘rshimiz mumkin[2].

Jahon hamjamiatidagi ziddiyatlarning mafkurafiy niqoblar ostida keskinlashib borayotganligi, har qanday iqtisodiy manfaat turli uslubda mafkurafiy yoki g‘oyaviy niqoblar bilan himoyalangan holda olg‘a surilayotganligi O‘zbekiston tarixi va boshqa ijtimoiy fanlarda innovatsiya tushunchasi va undan samarali foydalanish naqadar ahamiyatli ekanligiga yana bir misoldir.

Xo‘sh muammoli o‘qitish nima?

Muammoli o‘qitish – o‘quvchining muammoli taqdim etilayotgan ta’lim mazmuni bilan faol o‘zaro bog‘lanishini tashkil etadi. Bu o‘quvchidan faol harakat qlishni, mustaqil qaror qabul qilishni, tanqidiy fikrlash, bilimlarini qo‘llagan holda muammolarni bartaraf etishning optimal yo‘llarini izlab topishga undash bilan ijodiy fikrlash qobiliyatlarini namoyon qilish va mustaqil ishslash kabi ko‘nikma, malakalarini shakllanishini ta’minlaydi.

Uslubiy adabiyotlardan o‘rgangan va ish tajribamda qo‘llagan muammoli o‘qitishga misol bo‘la oladigan ayrim usullar yuzasidan o‘rtoqlashgim keldi. Jumladan, SWOT metod hususida.

SWOT universal tahlil metod o‘rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni o‘quvchilar tomonidan mustaqil hal etilishini ta’minalashga xizmat qiluvchi metodlardan biri hisoblanadi.

Ushbu metod mukammal tahlil o‘tkazish uchun qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Uning nomi inglizcha so‘zlarning birinchi harfidan olingan bo‘lib, **Strengths** – kuchli tomonlar, **Weaknesses** – kuchsiz tomonlar yoki zaiflik, **Opportunities** – imkoniyatlar, **Threats**-tashqi muhitda mavjud xavf-xatarlar degan ma’noni bildiradi[3]. Dastlab bu metod mavjud vaziyat haqidagi bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llangan. U o‘rganilayotgan ob‘ekt, vaziyat yoki jarayonning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, Shuningdek, ob‘ektni o‘rab turgan tashqi muhit bilan bog‘liq xavf xatarlarni aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bu metodni ta’lim jarayonida qo‘llash o‘quvchilarda tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

SWOT –universal tahlil metodini umumta’lim maktablarida qo‘llash uchun o‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham ma’lum bir tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lishi, ya’ni bu metodning maqsadi, qo‘llanilish holatlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Bunda o‘rganilayotgan ob‘ekt

yoki masalaga taalluqli bo'lgan ichki va tashqi faktorlarni ajratish, ijobiy va salbiy omillarni ajrata olish malakalari shakllangan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, tahlilini o'tkazish jarayonida ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olish talab etiladi.

O'zimizga va o'quvchilar qiyinchilik tugdirmaslik uchun avvalo metodga hos bo'lgan mavzuni tanlay bilish kerak. Ikkinchidan o'quvchilarni yoshlik va o'zlashtirish darajalariga mos bo'lgan muammoni to'gri qo'ya billish metodni samarali amalga oshishini ta'minlaydi[5].

Masalan, 7-sinf O'zbekiston tarixi fanidan "Xorazmshohlar sultanatining Mo'g'ullar davlati bilan munosabatlari" mavzusini o'rganish jarayonida ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu mavzuda "Mo'g'ullar bosqini arafasida Sulton Muhammad Xorazmshoh davlatidagi ijtimoiy, siyosiy va harbiy sohadagi kuchli, zaif, tashqi xavf-xatar va uning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Berilgan jadval asosida har bir o'quvchi darslikdagi matndan foydalangan holda, mustaqil tahlil qilishi maqsadga muvofiq.

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi va guruhlarga topshiriqlar jadval asosida beriladi va vaqt belgilanadi. Belgilangan vaqt tugagach guruhlar navbat bilan taqdimotini o'tkazadilar. Taqdimot vaqtida yangi mavzuni bayoni, mustahlamlash, baholash bosqichlari ham amalgam oshirish uchun to'liq imkoniyatlar yaratiladi.

Interfaol ta'lism texnologiyalari ta'lism sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, talaba, talabalar guruhi, Shuningdek, jamoa o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish, g'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lism oluvchi (o'quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

## XULOSA

Hozirgi vaqtda o'quvchi yoshlarning akselerasiyasi, ya'ni bolalar rivojlanishining tez suratlar bilan borishi, bu jarayon ularning ham aqliy, ham jismoniy jihatdan rivojlanishlarida yaqqol namoyon bo'layotganligini alohida ta'kidlash lozim. Mustaqil yurt talablari yoshligidanoq radio, televidenie, ro'znama, oynoma va turli kitoblar, informasiya kanallari orqali ko'p zamonaviy ilmiy-texnikaviy yangiliklardan boxabar bo'lmoqdalar. Bularning hammasi o'quvchi yoshlarning dunyoqarashlari qo'lamicini kengayishiga olib kelmoqda.

O'quvchi o'z uyida televidenie orqali, yoki kino-teatrda tarixiy mavzusidagi asarni tomosha qilib, uning mazmuni bilan chuqur tanishishga muvaffaq bo'lgani holda, o'qituvchi dars jarayonida faqatgina darslik material bilangina chegaralanayotgan bo'lsa, u holda o'quvchida mazkur dars uchun hech qanday qiziqish paydo bo'lmaydi. Ana Shunday inqirozli sharoitdan chiqib ketish uchun o'qituvchi tarixiy ta'limalda emosional mahoratini oshirib borib, o'quvchilarni mavzuning mazmuniga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borib, uning har tomonlama mustahkamlanishiga erishmog'i kerak.

## Foydalilanigan adablyotlar:

1. Jo'raev R.H., Zunnunov A. Ta'lism jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2005., Jumaniyozova M.T. Farg'ona viloyati tayanch maktablari negizida o'qituvchilarni malakasini oshirish tajriba-sinov kursi uchun o'quv reja, dastur, mashg'ulotlar jadvali va o'quv –medodik majmua. – T.: 2010.

2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: 2001.
3. Imomnazarov M., Eshmuxamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: Toshkent islom universiteti. 2001.
4. Ishmuhamedov R.J. Bolalarni tarbiyalash va sog'lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya (o'zbek va rus tillarida). – T., UDAP, 2004.
5. Egamberdieva T.A., Yo'ldoshev, D.Jo'raeva D., Tashpulatov I. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va interfaol usullar / (O'qituvchilar uchun uslubiy tavsiyanoma) I-II qism Farg'ona-2013.
6. Бозаров, Д. М., & Каримова, Г. Й. (2021). МУРАККАБ ИЖТИМОЙ ТИЗИМЛАРДА ЎЗ-ЎЗИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ МОДЕЛИНИНГ ЎРНИ. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 1-9.
7. Каримова, Г. Й. (2021). АХЛОҚ-МАЊНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ МАФКУРАВИЙ УСУЛИ СИФАТИДА. *Экономика и социум*, (6-1 (85)), 707-710.
8. Karimova, G., & Khasanova, D. (2022). Social relations in economic processes in the science of economic sociology. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 273-277.
9. Gulnoza, K., Gulzodabegim, K., & Mokhinur, Z. (2022). THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF THE SCIENCE OF SOCIAL ANTHROPOLOGY. *Research Focus*, 1(3), 88-93.
10. Gulnoza, K., & Niginabonu, K. (2022). QUESTIONNAIRE AND ITS APPLICATION. *Research Focus*, 1(3), 78-82.
11. Begalievich, B. R. (2022). Inter-ethnic conflicts in the south of the Kyrgyz Republic. *Eurasian Research Bulletin*, 14, 51-56.
12. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 3(11), 34-40.
13. Бекмирзаев, Р. (2022). Yangi O 'zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag 'rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini yaratilishi. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, 1(1), 585-593.
14. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. *Research Focus*, 1(4), 267-272.
15. Valiyevich, Y. S., & Azamatjon, O. (2022). Theoretical And Practical Prospects For The Development Of Ethnoturism In Uzbekistan. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(4), 21-24.
16. Yo'ldashev, S., & Dilshodjon, M. (2022). Ta'lim Tizimida Innovatsion Texnologiyalarining Ahamiyati. *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, 3(6), 427-431.
17. Юлдошев С., и Бобоев М. «” Туркестанский сборник " Как важный источник в изучении истории Узбекистана». Актуальные проблемы истории Узбекистана, т. 1, вып. 1, январь 2023 г., сс. 461-7.
18. Bekmirzaev, R. B. (2022). Socio-Economic Causes Of Ethnic Conflicts In The Ferghana Valley. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(06), 135-138.

19. Bekmirzaev, R. B. (2022). Historical and political problems of the Ferghana valley. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(6), 104-106.
20. Каримова, Г. (2022). МАЊНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 612-615.
21. Жўраев, Х. П., Бекмирзаев, Р. Б., & Юсупов, Ж. (2022). ЧОР РОССИЯСИННИГ ТУРКИСТОНГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИДА ЕР БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАРНИНГ ҲАЛ ЭТИЛИШИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 54-59.
22. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. *The Peerian Journal*, 12, 31-34.
23. Yuldashev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. *The American Journal Of Social Science And Education Innovations*, 3(11), 36-40.
24. Bekmirzaev, R. B. (2021). Factors affecting nation-building relationships in Fergana Valley. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(11), 122-125.
25. Bekmirzaev, R. B. (2021). Traces Of Archaic Religions In The Modern Way Of Life Of The Peoples Of The Ferghana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(11), 41-46.
26. Valievich, Y. S. (2020). Children's Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. *European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol*, 8(9).